

## **Bolalar uchun o‘yinlarning tarbiyaviy ahamiyati**

**Guliston davlat pedagogika instituti**

**8.23-guruh talabasi**

**Bobonazarova Dildora Jo‘rabek qizi**

**Annotasiya:** Ushbu maqolada bola uchun o‘yinlarning tarbiyaviy ahamiyati, ularning bola rivojlanishiga ta’siri, foydali jihatlari haqida.

**Kalit so‘zlar:** o‘yin, bola, psixologiya, bilish jarayonlari.

**Kirish:** O‘yin bolalarning asosiy vazifasi bo‘lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. Bolalar o‘yinlari — bolalarni aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash vositalaridan biri. Bolalar o‘yinlari bolalarning har tomonlama kamol topishiga katta ta’sir qiladi. O‘yin vaqtida sezgi, idrok, tafakkur, xayol, xotira, diqqat, iroda, hissiyot va boshqa ruhiy jarayonlar ishtirok O‘yin bolalarning jismoniy rivojlanishi, bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Jamiyatning manaviy takomillashuvi unda amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya ishlarining mazmuni, shakl va mohiyatiga bog‘liqdir. Shu boisdan ham ta’limdagi yangilanishni, respublikamizda amalga oshirilayotgan bosqichma bosqich ta’lim tizimi pedagogik talqin qilish, bu jarayonni samarali kechishini ta’minlash zaruriyati yuzaga keldi. Haqiqatan ham o‘yin har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi hayotni va kishilar o‘rtasidagi turli munosabatni har tomonlama bilib olishga qaratilgan faoliyatdir.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya:** Bolalarda o‘yin faoliyati haqida turli izlanishlar olib borilgan. F.Toshpolatov, R.Turopova, Z.Ahmedov, N.Aminova, X.Botiraliyev, H.Mahmudo va, F.Qurbonova, T.Bekpolatova kabilar bolalar psixologiyasi, o‘yinning bola ongiga, turmush tarziga ta’siri, uning ijobiy oqibatlarini, bolalar bilish jarayoniga o‘yinning ta’siri haqida ilmiy ishlar olib borganlar.

**Muhokama:** Bolalar o‘yinlari ning 3 asosiy xususiyati bor. Birinchidan, bola o‘yin faoliyatini erkii, o‘z xohishi bilan bajaradi. Ikkinchidan, mazkur faoliyatning ijodiy va faolligidir. Uchinchidan, o‘yin harakatlarining jo‘shqinligi: bola o‘yinga qiziqib ketadi, zavqlanadi, unda o‘rtoqlik hissi kuchayadi va hokazo. Bolalar o‘yinlari mazmuniga qarab o‘yinchoqli, voqeaband (syujetli), harakatli va didaktik o‘yinlarga bo‘linadi: 1) o‘yinchoqli o‘yinlar asosan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning o‘yinlaridir (sodda o‘yinchoqlar, mas, shiqildoq, kubiklar o‘ynash; qum bilan o‘ynash); 2) voqeaband o‘yinlarda bolalar kattalar faoliyatiga taqqid qilishadi.

Bu o'yinlar bolaning tashqi muhitidagi voqelikni aks ettiradi (mas, "bola boqish", "ovqat pishirish", "bog'chabog'cha" o'ynash va boshqalar) Bolalar ulg'aygan sari ularning voqeaband o'yinlari ham murakkablasha boradi; 3) harakatli o'yinlarni bolalar yakkayakka yoki birgalikda bajaradilar (mas, koptok o'ynash, tez yugurish va boshqalar). Bu o'yinlar maktab yoshidagi bolalarga ayniqsa foydalidir: bolalar sog'lig'ini mustahkamlaydi, ularni irodali qilib tarbiyalashga yordam beradi. Bolalarning sport o'yinlari ham harakatli o'yinlardandir; 4) didaktik o'yinlar ni tarbiyachilar o'ylab topadi. Bu o'yinlar bog'chalarning katta guruxlarida tarbiyalanadigan va boshlang'ich sinflarda o'qiydigan bolalarga mo'ljallanadi (mas, tabiiyilmiy mavzularga, chet tili so'zlarini eslab qolishga oid, loto o'ynash va hokazo.) Bu o'yinlar bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, zehn kabi sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bolani sog'lom va baquvvat bo'lib o'sishiga imkon beradi. o'yinlarning quyidagi turlari keng tarqalgan: 1) tabiiymavsumiy o'yinlar („Yomg'ir yog'aloq“, „Oq terakmi — ko'k terak“, „Uloq“ va boshqalar); 2) hududiy va turli joylarga mos o'yinlar (mas, uydaboshqotirma va so'z o'yinlari; hovlida — „Tosh o'yin“, „Arqon o'yin“, bog'da — yong'oq, danak o'yinlari, „Quvlashmashoq“ va boshqalar); 3) turli yosh va jinslarga xos o'yinlar (yigitlar orasida „Podachi“, „Chavandoz“, „Quloq cho'zma“ va boshqalar, Qizlar orasida „Durra“, „Chorichanbar“, „G'ozg'oz“ va boshqalar). Katta yoshdagi erkaklarning kurash, uloq, chavgon kabi sport o'yinlari bo'lsa, ayollarning ko'proq so'z, raqs, qo'shiqli o'yinlarni o'ynash odatlari bo'lgan; 4) mashg'ulot, mehnat faoliyati bilan bog'liq o'yinlar, odatda, „Navro'z“ kunlari o'ynalgan (mas, chorvachilikda „Ov o'yin“, kamondan otish, „Kiyik ovi“; dehqonchilikda „Mashoba“, „Xirmonxirmon“ va boshqalar; hunarmandchilikda „Sartarosh“, „Kovushim“, „Kashtachi“ va boshqalar); 5) voqeaband o'yinlar („Podshovazir“, „Urush o'yin“, „Echkicho'pon“, „Bo'ri va qo'ylar“ va boshqalar); 6) harakatli o'yinlar („Tepa kurash“, „Qo'riqchi“, „Chirkash“ va boshqalar); 7) turli vositali o'yinlar. Bu o'yinlar moddiy vositalar (qo'g'irchoq, o'yinchoq, tosh, tayoq, to'p, yong'oq kabilar) yordamida bajariladigan va ma'naviy, badiiyifodali vositalar (so'z, qo'shiq, raqs, teatr) yordamida amalga oshiriladigan o'yinlar; 8) hayvonlar ishtirokida o'tadigan o'yinlar. Bu o'yinlar eng qadimiy hisoblanadi („Uloq“, „Ot poyga“, „Chavgon“, „Xo'roz urishtirish“, „Qo'chqor urishtirish“, „Bedana urishtirish“, „It urishtirish“ va boshqalar).

**Natija:** O'yin — tarbiyalash va hordiq chiqarish vositalaridan biri. O'yin insoniyatning butun tarixi mobaynida diniy marosim, sport, harbiy va boshqalar mashqlar, shuningdek, san'at, ayniqsa uning ijro shakllari bilan qo'shilib kelgan. Ma'lumki, inson o'z hayotida o'yin, o'qish, mehnat, dam olish kabi mashg'ulotlar bilan band bo'ladi. Inson hayotining dastlabki davrlarida o'yin asosiy faoliyat

hisoblanadi, keyin esa u o'qish bilan baravar davom etadi, undan so'ng esa o'yin kamayib, uning o'rnini o'qish va mehnat egallaydi. Odamzod tarixining dastlabki davrlarida o'yinlar hayotda muhim o'rin tutgan. O'yinlar yordamida insoniyat o'sgan, ulg'aygan, chiniqqan, jismonan baquvvat bo'lgan, aqlan, ruhan rivojlangan, ma'naviy kamol O'yinning bola tarbiyasiga asosiy roli bolalar muassasasi hayotini u bilan boyitishni talab etadi. Shuning uchun ham o'yin bolalarning kun tartibiga kiritilgan. Bola o'yinining o'ziga xos jihati shundaki, u tevarak atrofdagi hayotni kishilarning faoliyati, ishlari, harakatlarini ularning ish jarayonidagi o'zaro munosabatlarini aks ettiradi.

**Xulosa:** Xulosa o'rnida aytish kerakki, bolalar o'yin faoliyati bilan birga ta'limiy mashg'ulotlarda ham ishtirok etadilar. O'yin faoliyati bolaning hayotida katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Bola o'yin faoliyati orqali atrofni o'rganadi, uning bilish jarayonlari rivojlanadi, ayniqsa ularning sezish jarayoni rivojlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. "Bolalar o'yinlari" O'zME. B-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)